

**IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA IXTISOSLASHTIRILGAN  
MAKTAB VA MAKTAB – INTERNATLARI MATEMATIKA FANI  
BO‘YICHA O‘QUV DASTURI TAHLILI**

*Bannayeva Matluba Olimjon qizi*

*Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti*

*Surdopedagogika va inklyuziv ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

*matlubaishabibi@gmail.com*

**Annotatsiya:** Dastur va darslik bir- biriga o‘zaro muvofiq ravishda mos tuziladi. Dastur va darslik tuzilayotganda o‘quvchilarning fiziologik va individual xususiyatlari hisobga olinadi. Masalan “Narsalarning to‘plami” mavzusi umumta’lim maktablarida 1- sinfda, Imkoniyati cheklangan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab – internatlarida esa tayyorlov sinflarida o‘tiladi. Imkoniyati cheklangan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab – internatlari uchun ixtisoslashtirilgan o‘quv dasturida korreksion vazifalar belgilangan.

**Kalit so‘zlar:** Imkoniyati cheklangan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari dasturi, tushuntirish xati, o‘quv faoliyati, bilim, ko‘nikma, malaka.

**Аннотация:** Программа и учебник составлены в соответствии друг с другом. При составлении программы и учебника учитываются физиологические и индивидуальные особенности учащихся. Например, тема “совокупность вещей” в общеобразовательных школах проходит в 1 классе, а в специализированных школах и школах - интернатах для детей с ограниченными возможностями – в подготовительных классах. Коррекционные задачи определены в специализированной образовательной программе специализированных школ и школ – интернатов для детей с ограниченными возможностями здоровья.

**Ключевые слова:** программа специализированных школ и школ-интернатов для детей с ограниченными возможностями здоровья, пояснительная записка, учебная деятельность, знания, умения, навыки.

Imkoniyati cheklangan bolalarga ixtisoslashtirilgan maktab va maktab – internatlari matematika dasturi Respublika ta’lim markazi Inklyuziv va maxsus ta’lim bo‘limining yig‘ilishida ko‘rib chiqiladi va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Ushbu dastur kar va zaif eshituvchi bolalar maktab – internatlari uchun mo‘ljallangan. Matematika o‘quv dasturida quydagilar ifodalangan: tushuntirish xati, o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalariga qo‘yiladigan talablar, har bir sinf kesimida mavzuiy rejalashtirish o‘z ifodasini topgan.

Tushuntirish xatida sinflar uchun matematika bo'limining asosiy mazmuni va ta'limiy maqsadi: miqdor haqidagi tasavvurini shakllantirish, kattaliklar haqidagi tasavvurini shakllantirish, kattaliklar haqida tasavvur hosil qilish, narsa va buyumlarning shakli va ularning fazoviy joylashuvi haqida tasavvurlarini shakllantirish, vaqt tasavvurini shakllantirish tashkil etadi. Bu yo'nalish bo'yicha ish ta'lim bilan parallel olib boriladi. Tayyorlov sinfda matematika fani bo'yicha dasturning asosiy mazmunini o'zlashtirish boshlang'ich va yuqori sinflarda matematika fanini yaxshi o'zlashtirishiga yordam beradi. Tushuntirish xatida quydagilar ifodalangan: o'quv faning umumiy xarakteristikasi, davlat talablari asosidagi vazifalar, korreksion vazifalar berilgan.

O'quv fanining umumiy xarakteristikasida matematika bo'yicha kurs eshitishida muammolari bo'lgan (kar, zaif eshituvchi) bolalarni matematikani tizimli o'rganishi uchun mustahkam poydevor bo'lishi, shuningdek bolalarda mantiqiy, nutqiy tafakkuri, fikrlashini rivojlantirish, kamchiliklarini to'g'rilashga xizmat qiladi.

Davlat talablari asosidagi vazifalari:

- natural son haqida tushuncha hosil qilish;
- 10 ichida og'zaki va yozma hisoblash amallarini egallash ko'nikmasi;
- matematik iboralar va amallarni tushunish, tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish imkoniyatini rivojlantirish;
- darsda egallagan bilimlarini amaliy hayotiy masalalarni yecha olish va yoshiga mos o'yin jarayonida qo'llay olish imkoniyatini shakllantirishdan iborat.

Korreksion (nuqsanni tuzulishiga qaratilgan) vazifalarda quydagilar belgilangan:

- o'quvchiga qaratilgan nutq, murojaat, topshiriqni ko'rib – eshitib qabul qilish, tushunish imkoniyatini shakllantirish va rivojlantirish;
- ovozni kuchaytirib beruvchi eshitish apparatlaridan to'g'ri foydalanish, eshitish ko'nikmasini shakllantirish;
- fikrlash, o'ylash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- masalalarning mazmuni, mohiyati va talabini tushunish imkoniyatini shakllantirish va rivojlantirish;
- o'qituvchining qo'ygan vazifasi, masala va topshiriqlariga javobgarlikni his qilgan holda yondashish ko'nikmasini hosil qilish;
- masalalarning mazmunin tushunishga qiziqishni tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirish;
- sutka ichidagi vaqtni, hafta kunini aniqlash ko'nikmasini shakllantirish;
- vaqt turkumini bildiruvchi so'zlarni eshitib farqlash ko'nikmasini hosil qilish;
- qobiliyatini rivojlantirish, to'g'ri va teskari sanashni bilish;
- arifmetik amallarning mazmun – mohiyatini tushunish;
- arifmetik amllarni o'zining hayotiy tajribasiga moslashtirish, soddalashtirish;

O'quvchilarning o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar sinflar kesimida bo'lib chiqilgan.

Tayyorlov sinfda o'quvchilarga qo'yiladigan talablar: 1 dan 10 gacha to'g'ri va teskari tartibda sanash va yozish, sonlarni taqqoslash, qo'shni sonlarni aniqlash; 9 soniga 1 sonini qo'shish va 10 dan birliklarni ayirish; 10 ichida qo'shish va ayirishga doir misol va masalalar; o'nlikka bir xonali sonni qo'shish va o'nlikdan bir xonali sonni ayirish; 11 dan 20 gacha bo'lgan sonlarning hosil bo'lishi. Bir xonali va ikki xonali sonlar; "ta ortiq" "ta kam" munosabatlaridan tashkil topgan sodda matnli masalalar; xonadan o'tmasdan 20 ichida qo'shish va ayirish, qo'shish va ayirishning hadlari; qo'shiluvchilar o'rnini almashishi bilan yig'indi o'zgarishiga doir misollar o'rgatilishi kerak. Har bir sonni to'g'ri talaffuz, va ovoz bilan aytish, ularning yozilishini, grafik ifodasini tushunish, yozish malakasini egallash. Masalaning mazmunini rasmga va tanish so'zlarga tayangan holda tushunish. Matematika fani bo'yicha mo'ljallangan dastlabki abstrakt tushunchalar orqali so'z boyliklarini oshirish. Ovozni kuchaytirib beruvchi individual va jamoa tarzida foydalaniladigan eshitish apparatining o'zi uchun zarur vositasiga aylanish darajasiga yetkazish; matematik belgilar  $+$ ,  $-$ ,  $=$ , qiyoslash belgilari  $>$ ,  $<$ ,  $=$  beriladi.

1-2- sinflar o'quv faoliyatiga qo'yiladigan talablar:

0 dan 100 gacha bo'lgan nomaanfiy butun sonlarni o'qiydi, yozadi, berilgan tartibda sanaydi, taqqoslaydi, tartibga soladi, modellarda ko'rsatib beradi, butun sonlar ketma-ketligini tarkib topish qonuniyatini aniqlaydi, berilgan narsalarni xossalari ko'ra bir yoki bir nechta to'plamga ajratadi, narsalarni juftini topadi, to'plamlarni miqdoriga qarab taqqoslaydi. Yassi figuralarni tasavvur qila oladi va taniydi, nomlaydi, solishtiradi va tasvirlaydi. 100 ichida qo'shish, ayirish amallarini tarkibiy qismlarini ajrata oladi, jadval asosida qo'shish va ayirish amallarini bajaradi. Uzunlik o'lchov birliklari- santimetrni, detsimetrni, metrni, og'irlik o'lchov birliklari – kilogrammni, sig'im o'lchov birligi – litrni, vaqt o'lchov birligi – haftani, hafta kunlarini, yil, soat minutni biladi, o'qiydi, yozadi, ular orasidagi munosabatlardan foydalanib arifmetik usullarda masalalarni yecha oladi. O'lchamlari ma'lum bo'lgan geometrik figuralarni chizg'ich orqali chiza oladi, plastilindan yasay oladi. 2 amalli sonli ifodaning qiymatini hisoblaydi. Murakkab bo'lmagan jadvallar ko'rinishida berilgan ma'lumotlarni o'qiydi, tayyor jadvallarni to'ldiradi. O'rganilgan matematik tushunchalar, matematik holatlarni tahlil qiladi va shu asosida mulohaza yuritadi.

3-sinf o'quv faoliyatiga qo'yiladigan talablar:

Ko'paytirish amalida qatnashgan noma'lum tarkibiy qismni aniqlay oladi va ko'paytirish bir xil qo'shiluvchilari yig'indisini topish ekanligini anglaydi, ko'paytirishning asosiy xossasini aniqlashda qo'llaydi. Ko'paytirish va bo'lishga doir misollar tuzib, ko'paytirish va bo'lish jadvallarini yoddan biladi. 0, 1, 10 ishtirokida ko'paytirish va bo'lish amallarini bajaradi. Sonning ulushi haqida tasavvurga ega

bo'radi. To'g'ri to'rtburchak yuzini hisoblaydi, asosiy kattaliklarni o'lchaydi. Bo'linuvchi, bo'luvchi, bo'linma va qoldiqni chizmada ifodalaydi, miqdorlarni topishga oid sodda masalalar va ular asosida hayot bilan bog'liq masalalarni matematik usulda yecha oladi. Aylana va doirani markazi, radiusi, diametrini aytadi va sirkuldan foydalanib shakllarni yasaydi.

4-sinf o'quv faoliyatiga qo'yiladigan talablar:

0 dan 1000 gacha bo'lgan nomanfiy butun sonlarni o'qiydi, yozadi, sanaydi, taqqoslaydi, tartibga soladi, sonning tarkibini aniqlaydi. 0 dan 1000 gacha sonlar ketma-ketligini aniqlaydi va ketma-ketlik asosida tuzadi. 1000 ichida sonli va harfli ifodaning qavsli, qavssiz qiymatini og'zaki va yozma hisoblaydi, tekshiradi. Sonlarni qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish jadvalaridan, arifmetik amallarning bajarilish tartibidan foydalanib misollarni yecha oladi. Rim raqamlarini o'qiydi, yozadi va foydalanadi. Tenglamalarni noma'lum sonlar orasidagi o'zaro munosabat asosida yechadi. Narx – navo, og'irlik, vaqt, uzunlik, yo'l, yuz, tezlik orasidagi munosabatlarni qo'llab, kundalik hayot bilan bog'liq masalalarni yecha oladi. Yuz o'lchovi birliklari va ular orasidagi munosabatlar haqidagi tasavvurga ega bo'ladi. Mantiqiy va tarkibli masalalarni yecha oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. E. Jumayev, Z.G'.Tadjiyeva "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi". Toshkent – 2005.
2. M. E. Jumayev. Matematika o'qitish metodikasidan praktikum. T.: "O'qituvchi" 2004.
3. U.Fayziyeva. Alohida talim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab- internatlarining 1-sinf darsligi Toshkent - „Ilm ziyo“ – 2022
4. X. Kalbayeva, D.Yakubjanova. Matematika. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining 3-sinfi uchun darslik. T., G'.G'ulom NMIU. 2007.
5. X. Kalbayeva, D.Yakubjanova. Matematika. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining 4-sinfi uchun darslik. Yangiyo'l poligraf servis. 2010.
6. D.Yakubjanova, X. Kalbayeva, D. Raximova, M. Muhamedova. Matematika. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining 5-sinfi uchun darslik. T.: Yangiyo'l poligraf servis. 2010.